

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH FAOLIYATINI TASHKIL
ETISHNING SAMARALI USULLARI**

Muxtorova G.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi*

Ilmiy rahbar: Ibragimova D.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish faoliyatini tashkil etish usullari haqida so‘z boradi. Hozirgi rivojlanib kelyotgan texnologiya asrida zamonaviy va innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda tashkil qilish orqali o‘qish faoliyatini yaxshilash haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar, o‘qish faoliyati, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, usullar.*

Mavzuning dolzarbliji

Ta’limning asosiy maqsadi jamiyatga kerakli yetuk davlatimiz rivojiga hissa qo‘sadigan millat kelajagi uchun qayg‘uradigan shaxslarni tarbiyalashdir. Shunday ekan, ta’limda o‘qish faoliyati muhim sanaladi. O‘qish va o‘qitish samarali bo‘lishi esa juda muhim hisoblanadi. O‘qish faoliyati muhimligi o‘quvchi ilmiy adabiyotlardan aniq, to‘g‘ri, o‘rinli foydalanishi, savodxonlikni oshirish, shaxsni ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashdan iborat.

Ta’lim tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar tezda samara beradigan ish emas, ko‘p yillar davomidagi o‘zgarish demakdir. Shu tufayli ta’lim tizimidagi islohotlarni boshlang‘ich sinfdan boshlashimiz zarur. Hozirgi kunda interfaol metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalar ta’lim jarayonida muhim o‘rnlarni egallamoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar berilgan tayyor bilimlarni egallahsga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni o‘zları egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topishlari, mustaqil o‘rganishlari, fikrlash va tahlil qilish hattoki yakuniy xulosalarni o‘zları keltirib chiqarishiga o‘rgatadi.

Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi.

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio kolonkalar) yordamida ta’lim jarayonini tashkil etilishiga alohida e’tibor berilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim

jarayonida turli zamonaviy axborot texnologiyalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Bola tug‘ilishi bilan unga to‘g‘ri ta’lim berilsa, o‘qimishli inson bo‘lib kamol topishi mumkinligi haqida doktor Shinichi Suzuki shunday deydi: ”*Qoloq bolalar yo‘q, barchasi o‘qitish usuliga bog‘liq*”. Bolalarga kichikligidanoq kitob, har xil matnlar, ertaklar, hikoyalar o‘qib berish kerak. Bola ularni ko‘p marotaba eshitadi va eslab qoladi. Bordi-yu e’tiborsiz o‘qisangiz u darxol xatolarni anglaydi. Bola hikoya ertaklarni aniq yodlab oladi, ammo bu aniq tushunishga emas shakliy xotiraga asoslanadi. So‘ng bolaga qaysidir hikoya qiziq bo‘lib qoladi va uni o‘zi o‘qishni istaydi. Alifboni bilmasa ham eshitgan hikoyasini kitoblardagi rasmlarga solishtiradi va o‘qiy boshlaydi. Aynan shu vaqtida bola turli harflarning ma’nosini qiziqish bilan so‘raydi. Turli narsalarni so‘rashi bolada qiziqish uyg‘onganini ko‘rsatadi.

O‘qish faoliyatiga qiziqish 1-2 sinflarda ko‘tarilib, 3-4 sinflarda pasayadi. O‘quv faoliyatiga qiziqishning pasayishiga o‘qituvchining tayyor materialni bayon etishi va o‘quvchilarining yodlab olishlari vazifasi ustunlik qiladi. Shuning uchun o‘qishga o‘quvchilarni qiziqtirish va samaradorligini oshirish uchun bir qancha usullarni ko‘rib chiqaylik.

“Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha” metodi

O‘quvchilarining mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- Hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;
- O‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini toptirish;
- O‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- O‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- O‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- O‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi “Uy hayvonlari va parrandalar”, “Oshxona jihozlari”, “Qushlar” kabi mavzularini o‘rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo‘llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi. O‘quvchilar ana shu so‘zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo‘llash mumkin. Yozuv ekranda ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ortiqcha so‘zni aniqlashadi.

Uy hayvonlari: sigir, qo‘y, toshbaqa, ot, it.

So‘ng bu so‘zlar ishtirokida gap tuzish topshirig‘i beriladi va tuzilgan gaplar asosida o‘quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg‘otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi.

“Videotopishmoq” metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitafonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayoniga turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O‘quvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- O‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- Jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- O‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Masalan, “Elektr jihozlar” (1-sinf), “Yil fasllari” (2-sinf) kabilar aosida o‘quvchilarga milliy an‘analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosobatlar haqida tushunchalar beriladi.

Lug‘at ustida ishlashda ham turli interfaol usullardan foydalanish mumkin. Quyidagi metodlar ham tajriba sinovdan o‘tgan bo‘lib, nutqni fikrlashni rivojlantirishda yaxshi samara beradi.

“Hikoya”. O‘qituvchi doskaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. Masalan, Lola, uycha, daraxt, yomg‘ir kabi Bu metodni rasmlar orqali ham qo‘llasa ham bo‘ladi. Masalan, doskaga turli xil rasmlar ilib qo‘yadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

“O’zaro bog’liqlik”. O’qituvchi bunda o’quvchilarga o’tiladigan mavzu yoki darslikdan tashqari kitoblardan biror matn, hikoya, ertak oladi. Hajm jihatdan kattaroq bo’lishi lozim, chunki uni qismlarga ajratganimizda ko’proq bo’lishi kerak. Hikoyani qismlarga ajratgandan so‘ng ularni o’quvchilarga taqdim etadi. O’quvchilar voqealarni o’zaro bog’liqligiga qarab matnlarni qaytadan joylashtirib chiqadi. Bu esa hikoya qismlaridagi voqealiklar o’quvchini yanayam xotirasidan qolishini va o’qigan hikoya ertaklariga diqqatini oshirishni ta’minlaydi.

“Qayta so’zla” metodi o’quvchilardan ziyraklikni va hushyorlikni talab qiladi. O’qituvchi tomonidan biror matn, ertak, hikoya o’qib beriladi yoki televizor orqali namoyish qilinadi yoki eshittiriladi. O’quvchilarga besh daqiqa vaqt beriladi, o’ylab, qayta eslab aytishlariga tayyorgarlik uchun. So‘ngra eslarida qanchalik qolgan bo’lsa qayta hikoya qilishadi. Bunda o’quvchining fikrini bo’lish yoki “xato” deb e’tiroz bildirish mumkin emas, chunki biz o’quvchini qanchalik eslab qolish qobiliyati, nutqi, fikrlashini bilish va uni yanada rivojlantirish uchun bu metoddan foydalanyapmiz.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida metodlardan dars jarayonida foydalanilsa dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta’lim samaradorligiga xizmat qiladi. O’qituvchilarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg’or pedagogik hamda innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

O’sib kelayotgan yosh avlodni dunyo standartlarida tarbiyalash, ularning kitobxonlikka qiziqishini oshirish, nutqiy faoliyatları, tezkor fikrlashlarini innovatsion texnologiyalar asnosida rivojlantirish bugungi zamon pedagogikasiga qo’yilgan talablardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oli ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847 sonli farmoni. 2019-y.

2. S Matchonov, H. Bakiyeva, X. G’ulomova, Sh. Yo’ldosheva, G.Xolboyeva “Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi”. Ishonchli hamkor. Toshkent. 2020-y.

3. Ibragimova, D., & Mirzanazarova, G. (2023). TECHNOLOGIES FOR THE FORMATION OF INTELLIGENCE AND THE MANIFESTATION OF TALENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Modern Science and Research, 2(5), 1073–1076. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/20520>.

4. Inomjonovna, I. D. (2023). BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARI INTELLEKTINI SHAKLLANTIRISH VA IQTIDORINI NAMOYON QILISHGA DOIR TEXNOLOGIYALAR.

7 – TOM 3 – SON / 2024 - YIL / 15 - MART

5. Akramjon O'Ktamjonovich Mirzayev, and Odina Davronbek Qizi Pozilova. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PIRLS TADQIQOTINING AHAMIYATI" Scientific progress, vol. 3, no. 3, 2022, pp. 139-143.